

GIDRONIMLAR

*Sotiboldiyev Dilhayot
Qo‘qon DPI O‘zbek tili va adabiyoti
fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon shahrida mavjud bo‘lgan gidronimlar hamda nomlarining kelib chiqishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: oksonim, pelagonim, limnonim, potamonim, gelonim, mikrotoponimiya, gidroobyekt.

Respublikamizda 17 000 dan ortiq qishloq va boshqa aholi punktlari, 5 000 ga yaqin quduq borligi ma’lum. Odatda O‘rta Osiyoda suv obyektlari, jumladan ko‘llar kam deb kelinadi; holbuki birgina Tyanshan tog‘laridan 12 000 soy va jilg‘alar oqib tushadi, Sirdaryo yoqasida 2118 ko‘l hisobga olingan¹. Nomshunos S.Qorayevning ushbu fikrlari kichik bo‘lsa-da, lekin tarixda Qo‘qon xonligi nomi bilan dovrug‘ qozongan Qo‘qon shahriga ham aloqadordir. Gidronim (yun.-hidor –suv+onomatoqli ot) – suvlikdagi har qanday (tabiiy va sun’iy) obyektlarning (oksonim, pelagonim, limnonim, potamonim, gelonim) atoqli oti. Toponim turi². Qo‘qon shahri tarixiy mikrotoponimiyasi tarkibida gidronimlar - suv inshoatlarining atoqli otlari sezilarli o‘rinni egallaydi.

O‘rganilayotgan hudud gidronimlarini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1) *soy nomlari*: Ulkansoy (Qo‘qonsoy), Naymansoy, Oqtepasoy, Urganjisoy, Qiyalisoy, G‘alchasoy;

2) *ko‘l nomlari*: Achchiqko‘l, Oydinko‘l;

3) *buloq nomlari*: Oqbuloq, Zarbuloq, Buloqboshi, Qaynarbuloq, To‘qqizbuloq, Majnunbuloq, Qizbuloq, Oqariq, Shirmonbuloq (Chermonbuloq), Oybuloq;

4) *ariq nomlari*: Qipchoqariq, Juyi Samandarak (Samandar arig‘i), Xonariq, Qo‘shqariq, Qorasuv arig‘i;

5) *quduq nomlari*: Zarquduq, Quduqli;

6) *ko‘priq nomlari*: Charxin ko‘prigi, Noib ko‘prigi, Boyta ko‘prik;

7) *suvlik nomi bilan bog‘liq boshqa toponimlar*: Artizonbo‘yi, To‘g‘onboshi, Taxtali hovuz, Solkashon, Chalchiq, Baqaqurilloq.

Bulardan tashqari fors-tojikcha izofiy birikmali gidronimlar nomlari ham mavjud: Obiravon, Obirahmat.

Gidronimlarning nomlanishi o‘ziga xosdir. Ularning atalishiga har-xil omillar

¹ С.Кораев. Географик номлар маъносини биласизми? “Ўзбекистон”. Тошкент.: 1970. 9-бет

² Э.Бегматов, Н.Улуков. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. Наманганд.:2006.25-бет

asos bo‘lgan³.

1. Urug‘-qabila nomlari bilan atalgan gidronimlar (etnogidronimlar). Bu xil nomlar suv ob’yektlarining ma’lum bir etnik guruhga tegishli ekanligini, ularga aloqadorligini bildiradi: G‘alchasoy, Qipchoqariq, Naymansoy va boshqalar.

2. Suvning maza-ta’mi, istemolga yaroqli yoki yaroqsizligiga, rang xususiyatiga nisbatan nom olgan gidronimlar: Achchiqko‘l, Qorasuv arig‘i, Oqbuloq, Zarbuloq kabilar.

Gidronimlar tarkibida qo‘llangan oq, qora sifatlari turli ma’no xususiyatlariga ega. Doimo oqib turadigan, tog‘dan, muzliklardan erib keladigan qor suvlari bilan to‘yinadigan, o‘z tabiiy o‘zanidan oqadigan, yozda qurimaydigan, rangi oq tusda bo‘lgan, ichishga yaroqli suv – Oqsuv, Oqbuloq deb nomlangan. Vodiylarda yer osti sizot suvlaridan to‘yinadigan, tabiiy o‘zanidan oqmaydigan, kanal qazib oqizilgan suv esa Qorasuv deb yuritilgan.

3. Gidroobyektning miqdori, oqimidagi yo‘nalishiga ko‘ra nomlangan gidronimlar: Qo‘shariq, To‘qqizbuloq, Obiravon, Qaynarbuloq va shu kabilar.

Gidronimlar yasalishida indikatorlar faol ishtirok etadi⁴. Gidronimik indikatorlarga soy (Ulkansoy, G‘alchasoy, Ganjiravonsoy, Qiyalisoy, Oqtepasoy), ko‘l (Achchiqko‘l, Oydinko‘l), buloq (Zarbuloq, Oqbuloq, Qaynarbuloq), ariq (Qipchoqariq, Qorasuv arig‘i) singarilar kiradi.

Ayrim suvliklar nomi bilan bog‘liq gidrotoponimlar xususida to‘xtalishni lozim topdik.

Artizonbo‘yi mahallasi - bu nisbatan yangi nom hisoblanadi. Qadimda bu mavze Rixtagarlik, 1802 yilda Norbo‘tabiyning qizi Oftoboyim tomonidan madrasa qurilgach, guzari Oftoboyim deb yuritilgan. Tarixdan ma’lumki, o‘tmishda qo‘qonliklar So‘x daryosidan boshlanadigan soylar, ariqlar, buloqlar, quduqlar, hovuzlar suvini iste’mol qilganlar. Qishloq xo‘jaligi va sanoatning rivojlanishi natijasida So‘x suvi keskin kamayada, bu hol shaharliklarni toza ichimlik suvi bilan ta’minlab turuvchi buloqlarning qolishiga sabab bo‘ladi. Gidrogeologlar tadqiqot olib borib, 1927-yili So‘x-Qo‘qon yer osti suvi manbasini topadilar, Oftoboyim madrasasi hovlisidan birinchi artezian qudug‘i kavlanadi. Yer osti suvi quvurlar vositasida yer yuzasiga chiqariladi va maxsus qazilgan hovuzga oqib tushadi. Shu tufayli odamlar bu joyni “Artizon bo‘yi” deb atay boshlaydilar. Keyinchalik suv hovuzga oqizilmay quvurlar orqali tarqatila boshlasada, odamlar bu nomni tildan qo‘ymaydilar⁵. Bu nom avval guzar, so‘ngra mutun mahallaga nom sifatida singib qoldi.

“Yangi chorusu” mahallasiga qarashli Marg‘ilon ko‘chasi o‘tmishda “Taxtali hovuz”, deb yuritilgan. Ko‘chadagi hovuzlardan birining cheti o‘pirilmasligi va suv

³ Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изохли лугати. Т.: 1988.

⁴ Охунов Н. К изучению гидронимов Ферганской долины

⁵ М.Дадабоев. Хўқанди латиф маҳаллалари ва кўчаларининг номланиш тарихи. “Фарғона”. 2007. 68-69-бетлар

oluvchilarning oyog‘i loy bo‘lmasligi uchun uning chetiga taxtadan hoshiya qilib, ustiga qopqoq ham o‘rnatilganligi sababli xalq bu ko‘chani shunday nom bilan atab kelgan⁶.

Yangi chorsuning janub tomoni “Chalchiq” nomi bilan mashhur. Chalchiq botqoqda o‘sadigan bir nav o‘simlikdir. Bir vaqtlar bu yerlarda chalchiq o‘sib yotar, shu tufayli bu boqoq Chalchiqzor deb nomlanardi. Zamonlar o‘tib bu atamadagi “zor” qo‘sishmchasi tushib qolib, “Chalchiq” holatiga kelib qolgan. XIX asrning I yarmida shahar atrofi devor – qo‘rg‘on bilan ixota qilinadi. Devor uchun tuproq uning tashqarisidan olinadi. Natijada shahar aylanasi bo‘ylab katta va chuqur zovur hosil bo‘ladi. Bu zovurning birinchi vazifasi dushman yo‘lini to‘sish bo‘lsa, ikkinchi vazifasi sizot suvlarini oqizib yuborish edi. Zovur qazilgach, sizot suvlar zovurga sizib, botqoqlik quriydi, lekin bugungi kungacha ham bu nom xalq tilida saqlanib, qo‘llanib kelinadi⁷.

“Qaymoqli guzar” mahallasiga qarashli “Chinnisoz” ko‘chasining bir qismi o‘tmishda “Solkashon” nomi bilan yuritilgan. Bu ko‘chada sol yasab, yog‘och oqizuvchi ustalar istiqomat qilganlar. Qozog‘iston dashtlari xonlikka qo‘sib olingach, u yerlarga shaharlar qurilgan. Imoratlar uchun zarur bo‘lgan yog‘och Farg‘ona vodiysi o‘rmonlarida tayyorlanib, Sirdaryoda oqizilgan, daryoning o‘rtaligida qurilayotgan shaharlarga yetkazib berilgan. Bunday ishlar bilan solkashlar shug‘ullanganlar⁸.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qo‘qon shahri tarixiy gidronimlari bilan bog‘liq bo‘lgan atoqli otlar xilma-xil bo‘lib, ularning nomlanishi qator obyektiv omillar bilan bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.Begmatov, N.Uluqov.O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati.Namangan.:2006.
2. M.Dadaboyev. Xo‘qandi latif mahallalari va ko‘chalarining nomlanish tarixi. “Farg‘ona”. 2007.
3. S.Qorayev. Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi? “O‘zbekiston”. Toshkent.: 1970.
4. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Т.: 1988.
5. Охунов Н. К изучению гидронимов Ферганской долини.

⁶ М.Дадабоев. Кўрсатилган асар. 24-бет.

⁷ М.Дадабоев. Кўрсатилган асар. 23-бет.

⁸ Кўрсатилган асар. 41-42-бетлар.